

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA MEHNAT QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Majidova Muslima Baxtiyor qizi

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi “Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

1-bosqich 32-23-guruh o‘quvchisi Telefon: +998888781505

[majidvamus1505@gmail.com](mailto:majidvamus1505@gmail.com)

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada aholini ish bilan ta‘minlash, ular uchun xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish kabi sharoitlarni yaratish maqsadida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida mehnat qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik kabi masalalar haqida qisqacha ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** mehnat sharoitlari, xavfsizlik va gigiyena talablari, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, huquqbuzarlik, ma‘muriy jazo chorasi, jarima.

### Аннотация:

в данной статье рассказывается о работе, проводимой нашим государством в целях создания таких условий, как обеспечение занятости населения, работа в благоприятных условиях труда, отвечающих требованиям безопасности и гигиены, справедливое вознаграждение за труд без дискриминации и не ниже установленного минимального размера оплаты труда, ответственность за нарушение трудового законодательства в законодательстве Республики Узбекистан приведены краткие сведения.

**Ключевые понятия:** условия труда, требования безопасности и гигиены, кодекс Республики Узбекистан Об административной ответственности, Уголовный кодекс, проступок, мера административного наказания, штраф.



**Abstract:**

This article provides brief information on such issues as employment of the population, work in favorable labor conditions that meet the requirements of safety and hygiene for them, work carried out by our state in order to create conditions such as without any discrimination for their labor and a fair remuneration in no less than the established minimum amount of remuneration, responsibility for violation of labor legislation.

**Key concepts:** labor conditions, safety and hygiene requirements, code of administrative responsibility of the Republic of Uzbekistan, criminal code, violation, administrative penalty, fine.

Bugungi kunda aholini ish bilan ta'minlash, ular uchun xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish kabi sharoitlarni yaratish maqsadida davlatimiz rahbari boshlichigida hukumatimiz tomonidan izchil amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bu borada mamlakatimizda mehnat bozorini shakllantirish jarayonida "Aholining ish bilan bandligi to'g'risida"gi qonuni<sup>1</sup> hamda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Mehnat kodeksi<sup>2</sup> muhim huquqiy asos hisoblanadi. Keltirib o'tilgan me'yoriy hujjatlar aholi turmush farovonligini oshirishda ularning bandligini ta'minlashning muhim asosini tashkil etadi.

Bu borada ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlarimiz ham, "O'zbekiston Respublikasida davlatning aholini bandligini oshirish sohasidagi chora-tadbirlarini tahlil qilish va ishchi kuchini samarali taqsimlashga erishishga qaratilgan mexanizmini ekonometrik modelini ishlab chiqish; ... yoshlar mehnat bozorini tadqiq qilish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni hamda uni amaliyotga joriy etishni talab etilishi"<sup>3</sup> haqidagi fikrlarni bildirgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Jinoyat kodeksida aynan mehnat

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Aholining ish bilan bandligi to'g'risida"gi 1998 yil 1 may 616-I-son qonuni.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. – T., "Yuridik adabiyotlar publish", 2023-y.

<sup>3</sup> F.N.Achilov. Aholi bandligini ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal – (1) IV/2019 ISSN 2181-063X 80-6er.



sohasidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun tegishli javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar belgilangan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning negizida inson qadri uchun tamoyili yotganligi, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini munosib himoya qilish, ularni ro'yobga chiqarish hamda farovon turmush tarziga ega bo'lishlari uchun sharoitlar yaratish asosiy maqsadimiz ekanligidan kelib chiqib, aytish mumkinki, aynan aholi bandligi va mehnat qonunchiligi sohasida huquqbuzarliklarni sodir etganlik, mazkur sohada davlat siyosatini samarali amalga oshirilishiga o'zining nojo'ya xatti-harakatlari bilan putur yetkazayotgan shaxslarning qilmishlariga munosib va adolatli javobgarlik hamda jazo choralari belgilash ham muhim masaladir.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 28.08.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ 558-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining fuqarolarning mehnat huquqlarini va aholi bandligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jarimalar nazarda tutilgan sakkizta moddasiga tuzatishlar kiritildi, yangi huquqbuzarlik tarkiblari kiritildi.

Ushbu kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar barobarida quyidagi holatlarga e'tibor qaratish o'rinlidir, ya'ni:

Birinchi, mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (MJTKning 49-moddasi) bilan bog'liq huquqbuzarlik uchun jazo chorasi miqdori BHMning 5 barobaridan 10 barobarigacha etib belgilandi hamda qo'shimcha tarkib kiritildi, ya'ni xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, bundan bila turib g'ayriqonuniy ishdan bo'shatish mustasno, – BHMning 10 barobaridan 15 barobarigacha jarima solishga sabab bo'ladigan bo'ldi. Bundan tashqari xuddi shu moddada voyaga yetmaganlarning mehnatga oid huquqlarini buzganlik uchun jarimalar ikki baravarga, ya'ni BHMning 10 barobaridan 20 barobarigacha oshirildi; Ikkinchi, voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzish (MJTKning 49<sup>1</sup>-moddasi) huquqbuzarligini sodir etganlik uchun jarima miqdori BHMning 10 barobaridan 20 barobarigacha, takroran sodir etilgan huquqbuzarlik uchun BHMning 20 barobaridan 30 barobarigacha jarima jazosi qo'llanilishi joriy etildi;



Uchinchidan, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini bajarmaganlik uchun (MJTKning 49<sup>2</sup>-moddasi) fuqarolarga 7 barobaridan 10 barobarigacha, mansabdor shaxslarga BHMning 10 barobaridan 15 barobarigacha jarima solinadi. Shuningdek, qo'shimcha tarkib kiritilib, takroran sodir etganlik uchun javobgarlik joriy etildi – bunda fuqarolarga BHMning 10 barobaridan 15 barobarigacha va mansabdor shaxslarga BHMning 10 barobaridan 30 barobarigacha jarima solinadi.

To'rtinchidan, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish nafaqalarini to'lash bo'yicha majburiyatdan takroran bo'yin tovlash huquqbuzarligi (MJTKning 49<sup>3</sup>-moddasi) ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilganda BHMning 15 barobaridan 30 barobarigacha jarima solishga sabab bo'ladi. Birinchi marta sodir etganlik uchun jarimalar o'zgartirilmadi;

Beshinchidan, xorijiy ishchi kuchini jalb qilish va undan foydalanish tartibini buzganlik uchun alohida modda joriy etildi va bunday huquqbuzarlik birinchi marta sodir etilganda: fuqarolarga BHMning 5 barobaridan 10 barobarigacha, mansabdor shaxslarga – BHMning 10 barobaridan 20 barobarigacha, takroran sodir etilganda: fuqarolarga BHMning 10 barobaridan 15 barobarigacha, mansabdor shaxslarga BHMning 25 barobaridan 50 barobarigacha jarima solinishiga sabab bo'ladi;

Oltinchidan, aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik (MJTKning 50-moddasi) uchun jarimalar tenglashtirildi – mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat qo'shimcha kafolatlarni ta'minlaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini yaratishga doir qarorlarini bajarmaganlik, mahalliy mehnat organlari tomonidan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ishga yuborilgan shaxslarni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etganlik, shuningdek ish o'rinlarining belgilangan eng kam soni hisobidan ish o'rinlariga ishga joylashtirishni asossiz ravishda rad etganlik (ilgari mavjud bo'lmagan), xuddi shuningdek avval talabnoma berilgan, kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga va malakasini oshirishga yuborilgan shaxslarni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etganlik uchun jarima birinchi marta sodir etilganda BHMning 10 barobaridan 20 barobarigacha, takroran sodir etilganda BHMning 20 barobaridan 30 barobarigacha miqdorni tashkil qiladi;

Yettinchidan, mehnatga ma'muriy tarzda majburlaganlik (MJTKning 51-moddasi) uchun jarimalar 10 marta oshirildi (BHMning 10 barobaridan 30 barobarigacha),



takroran sodir etganlik uchun BHMning 30 barobaridan 100 barobarigacha jarimalar joriy etildi. Voyaga yetmaganlarni mehnatga ma'muriy tarzda majburlash BHMning 30 barobaridan 50 barobarigacha jarima solinishiga sabab bo'ladi;

Sakkizinchidan, bo'sh ish o'rinlarini yashirganda (MJTKning 229-moddasi) aybdorlardan BHMning 10 barobaridan 25 barobarigacha undiriladi. Huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, BHMning 25 barobaridan 50 barobarigacha jarima undiriladi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi MJTKning 51-moddasida mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash huquqbuzarligi uchun javobgarlik belgilanib, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno etilgan holatda BHMning 30 barobaridan 100 barobarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ta'lim tashkilotining pedagog xodimiga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, BHMning 100 barobaridan 150 barobarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

So'zimiz yakunida aytish lozimki, mamlakatda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligiga so'zsiz rioya etilsa, barcha sohalarda korrupsiya holalariga barham berilib, qonunchilik talablari o'z vaqtida bajarilsa, huquqiy madaniyat yuksalsa, albatta o'sha mamlakat fuqarolari farovon hayotga erishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. – T., “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023-y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Aholining ish bilan bandligi to'g'risida”gi 1998 yil 1 may 616-I-son qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 22.09.1994 yil.
5. F.N.Achilov. Aholi bandligini ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal – (1) IV/2019 ISSN 2181-063X 80-bet.

